



COMPARATIVE STUDY OF ENGLISH AND UZBEK PROVERBS ABOUT NATURAL PHENOMENA

Mokhinur Baratboyevna Nizomova

*Doctor of philosophy (PhD) in philological sciences, head of the department
 Karshi State University
 Karshi, Uzbekistan*

Zilola Khamrayeva

*Master's student
 Karshi State University
 Karshi, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Proverbs, phrases, natural phenomena, equivalent, Grammar, semantic structure, nation, folk art, national spirit, culture, spiritual, historical, material, mentality, geographical, epos.

Received: 21. 08. 23

Accepted: 23. 09. 23

Published: 25. 09. 23

Abstract: This article talks about proverbs in English and Uzbek languages that reflect natural phenomena. Also, the article reflects the comparative study of English and Uzbek proverbs related to natural phenomena by several scientists. In this, the main emphasis is given to the English sayings of nature given by the names of the months, and the table of Uzbek proverbs is also reflected. English nature sayings are divided into parts according to the months of the year, and grammatical and semantic comments are added to them. It is no secret that proverbs and expressions related to natural phenomena created in the Uzbek language have a long history, and it is highlighted in the article how attractive and admirable they are. In the past, our forefathers used to say these words of wisdom after a long observation, and they have not lost their charm today.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI TABIAT HODISALARI AKS ETGAN MAQOLLARNI QIYOSLAB O'RGANISH

Mohinur Baratboyevna Nizomova

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), kafedra mudiri
 Qarshi davlat universiteti
 Qarshi, O'zbekiston*

Zilola Hamrayeva

Magistratura talabasi

МАҚОЛА НАҚИДА

Kalit so'zlar: Maqollar, iboralar, tabiat hodisalari, ekvivalent, Grammatik, semantik tuzilish, millat, xalq ijodiyoti, millat ruhiyati, madaniyat, ma'naviy, tarixiy, moddiy, mentalitet, geografik, epos.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi tabiat hodisalari aks etgan maqollar haqida so'z boradi. Shuningdek, maqola tabiat hodisalari bilan bog'liq ingliz va o'zbek maqollarini bir qancha olimlar tomonidan qiyoslab o'rganilishini o'zida aks etgan. Bunda asosiy urg'u oy nomlari bo'yicha berilgan ingliz tabiat aytishuvlari beriladi va o'zbek maqollari jadvalini ham aks ettirilgan. Inglizcha tabiat aytishuvlarini yil oylari bo'yicha qismlarga bo'lib berilgan va ularda Grammatik va semantik izohlarni qo'shimcha qilingan. O'zbek tilida yaratilgan tabiat hodisalari bilan bog'liq maqol va iboralar uzoq tarixga ega ekanligi hech kimga sir emas va ularning naqadar jozibador va ko'pni ko'zlab yaratilganligi ham tahsinga sazovorligi maqolada yoritib o'tilgan. O'tmishda otabobolarimiz o'zoq ko'zatishlardan so'ng ushbu hikmatli so'zlarni aytishgan va ular bugungi kunda o'z jozibasini yo'qotmagani.

СРАВНИТЕЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЦ О ЯВЛЕНИЯХ ПРИРОДЫ.

Мохинур Баратбоевна Низомова.

*Доктор философских наук (PhD) по филологическим наукам, заведующий кафедрой
Каршинский государственный университет
Карши, Узбекистан*

Зилола Хамраева

*студент магистратуры
Каршинский государственный университет
Карши, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Пословицы, словосочетания, явления природы, эквивалент, Грамматика, смысловая структура, нация, народное творчество, национальный дух, культура, духовное, историческое, материальное, ментальное, географическое, эпос.

Аннотация: В данной статье говорится о пословицах на английском и узбекском языках, отражающих явления природы. Также в статье отражено сравнительное исследование несколькими учеными английских и узбекских пословиц, связанных с явлениями природы. При этом основной акцент сделан на английских изречениях природы, данных названиями месяцев, а также отражена таблица узбекских пословиц. Английские поговорки о природе разделены на части по месяцам года, к ним добавлены грамматические и смысловые комментарии.

Не секрет, что созданные в узбекском языке пословицы и выражения, связанные с явлениями природы, имеют давнюю историю, и в статье подчеркивается, насколько они привлекательны и достойны восхищения. В прошлом наши предки произносили эти мудрые слова после долгих наблюдений, и они не потеряли своего очарования и сегодня.

KIRISH

Mieder tabiat hodisalari aks etgan maqollarga quyidagicha ta’rif beradi: “They are based on long observations of natural phenomena by people who couched their findings into proverbial form. Since weather proverbs usually contain prognostic statements, they have also been called predictive sayings, weather rules, and weather signs. Their intent is to establish a causal or logical relationship between two natural events that will predict the weather of the next hour, day, week, month, or even year. Little wonder that many predictive sayings follow the basic structure of ‘If (When) A then B’” (2004: 26).

ASOSIY QISM

Bu maqol va iboralar o‘zbek va ingliz tillarida klassifikatsiyalanadi. Ammo, Alan Dundes bunga qarshi shunday deydi: “He points out successfully that many “weather proverbs” are in fact superstitions or signs, and he is correct in calling for clearer generic differentiation at least on the part of folklorists” (Mieder 2008: 62). Maqollarning bir biriga zid kelishi ularning ishonchsiz chiqishiga sabab bo‘layotganligi - bu dolzarb mavzuninig asosiy sababidir. Ammo, Munzar bu mavzu yo‘zasidan samarali tahlil ishlarini olib borgach, tabiat hodisalari bilan bog‘liq maqollarning maqol deb qabul qilinishiga isbot taklif qildi. U folkorshunoslarning bu mavzuga tarixiy va mintaqaviy yondoshmaganligini isbotlab berdi va natijada ular chalkashib ketganligini dalillar asosida isbotladi. Bundan tashqari u qadimda dehqonlardan farqli, bu mavzudagi maqollarni turlarga ajratdi, shunday qilib u boshqalarning fikrini butunlay o‘zgartirishga muvaffaq bo‘ldi. Munzar ko‘plab tabiat aytishuvlarining ustida chuqur tahlil olib bordi, ularning ravon va aniq qilib yozilganligini shu bilan birga ularning “maqol ”deb baholanishini isbotladi.

Yana shuni qo‘srimcha qilishimiz kerakki, ya’ni o‘zbek tilidagi tabiat hodisalari aks etgan maqollarda yil oylari eski taqvimda berilganligiga alohida e’tibor qaratamiz. Masalan yanvar oyini “Oqpon” deya atashgan. shu tarzda qolgan oylar o‘z nomiga ega. Shuningdek yanvar fevral oylarini “katta chilla 40 kun”, “kichkina chilla 20 kun” davom etganligi uchun chilla nomi bilan ham beriladi.

January

No	English	O‘zbek
1	As the day lengthens, so the cold strengthens. ³ .	<i>Oqponda ot odimiday kun uzayar</i>
2	If the grass grows in Janiveer, it grows the worse for it all the year. ³	
3	If you see grass in January, lock your grain in granary. ³	<i>Chillada maysa ko ‘rsang, xirmoningni quflab qo ‘y.</i>
4	If Janiveer Kalends be summerly gay, ‘twill be wintry weather till the Kalends of May. ²	
5	The month of January is like a gentleman (as he begins, so he goes on). ¹ (ZE)	Qishning kuni qirq turli qirqisida qiliqsiz
6	The first three days of January rule the coming three months. ¹ (ZE)	Chillaning uch kuni, yilni belgilar
7	When oak trees bend with snow in January, good crops may be expected. ¹ (ZE)	Chilla qori yerning qoni

Table 1: January

Bu maqolning ikki tilde garchi tarjimasi bir bo‘lsada, bitta farqli jihatiga gap turidadir. Inglizcha variantimiz qo‘shma gap tarzida kelgan, o‘zbekcha shakli esa oddiy darak gap misolida berilgan.

Keyingi misolimiz ham shart ergash gapli qo‘shma gap orqali berilib yanvar oyida havoning sovishini va maysalarning bu oyda dam olishini ifodalab kelgan.

Yanvar oyi bilan ifodalangan bir nechta maqolimiz misol keltirilib berilganki, ularning haqiqat ekanligiga ko‘p hollarda urg‘u berilgan. Yuqorida aytganimizdan bevosita yanvar oyining qanday kelishi yozga nechog‘lik ta’sir ko‘rsatishiga ham e’tibor qaratilgan. Inglizcha versiyasi metafora orqali ifodalanib, o‘zbekcha variantida maslahat tarzida berilmoqda.

Bu inglizcha maqol eng mashhur maqollardan biridir. Porter Kalends so‘zi “dastlabki birinchi kunlarni” ifodalaydi deya izohlaydi. (2011: 99)

Bu maqol o‘xhatish tarzida berilgan bo‘lib ikki tilda ham yanvar oyining ob havosi o‘zgaruvchanligini va qanday boshlansa yil shunday shunday davom etishini ifodalab kelmoqda. (1898: 13).

Umuman olganda bu maqol orqali har ikki tilda ham qish faslida yog‘ingarchilikning ko‘pligi kelayotgan yilda hosilning mo‘llligiga va yerning to‘yishiga urg‘u berilmoqda

February

#	English	O'zbek
1	When gnats dance in February, the husbandman. . becomes a beggar. ³	<i>Yomon kelsa hutni ko'ring, serrayib yotgan putni ko'ring</i>
2	February fill ditch, black or white, don't care which: If it be white, it's the better to like. ³	<i>Yaxshi yil bahoridan ma'lum, yaxshi kunsaharidan</i>
3	All the months of the year, fear a fair Februeer. ⁴	
4	If February gives much snow, a fine summer it doth foreshow. ¹	<i>Yaxshi kelsa, hutni ko'ring, Xurma-xurma sutni sutni ko'ring</i>
5	It is better to see a troop of wolves, than a fine February. ¹	<i>Hut kirdi yer ostiga dud kirdi</i>
6	If in February the midges dance on the dunghill, then lock up your food in the chest. (ZE) ¹	
7	February rain is as good as manure. (ZE) ¹	<i>Yomg'ir -ekinning joni</i>
8	If bees get out in February, the next day will be windy and rainy. (ZE) ¹	

Bu oy bilan bog'liq maqol shart gap tarzida kelib, ob havoning insoniyatga nechog'lik ta'siri haqida so'z bormoqda.

Ushbu maqolning inglizcha variant qo'shma va aralash gap tarzida berilgan. qiziqarli tomoni shundaki, ular uch xil shaklga ega. Buyruq sifatida berilgan semantic jihatdan yomg'ir-qorning muhimligiga e'tibor berilmoqda.

Navbatdagi maqol ham yil boshi butun yilning qanday kelishiga bog'likligi haqida so'z bormoqda.

Fevral oyida ham qor-yomg'irning ko'pligi mo'l hosilga bashorat ekanligidan dalolat bermoqda.

Yumor sifatida berilgan ushbu maqol asosan maslahat, nasihatni ifodalamoqda.

Yanvar oyiga o'xhab fevral oyida ham kunlarning isib ketishi hosilga jiddiy ta'siri haqida so'z bormoqda. Kuzda ekilgan ekinlarga yumshoq havoning ta'siri jiddiyligi nazarda tutilgan.

March

No	English	O'zbek
1	March sun lets snow stand on a stone. ³	<i>Qoziq ustida qor turmas</i>
2	Better to be bitten by a snake, than to feel sun in March. ³	<i>Toshqizuvda kuygandan, ilon chaqqan yaxshi</i>
3	March dust to be sold, worth gapsom of gold.	<i>Bahorning bir kuni yilga tatir</i>

4	A wet march makes a sad harvest ³	<i>Hut qirg'oq, hamal sirg'oq</i>
5	When March thunders, tools and arms get rusty.	<i>Yaxshi kelsa hut kadi-kadi sut yomon kelsa hut egri –bukri put</i>
6	If March comes in like a lamb, it goes out like a lion; If it comes in like a lion, it goes out like a lamb.	<i>Aziz momo olti kun Qaltirasa qattiq kun Sakgapsa sakkiz kun to 'qransa to 'qqiz kun O'qgapsa o 'n kun</i>
7	March comes in with adder's head and comes out with peacock's tails.	<i>Aziz aqchasiz ketmas Qizlar bo 'g 'chasiz</i>

Mart oyi o‘zbek tilida “Oz”, “Hut”, “Hamal” deb nomlangan va u o‘n kunlikka bo‘linib berilgan.

Bu misollar orqali mart oyida ham qor yog‘ishi va uning ko‘p turmasligi haqiqatligi haqida so‘z bormoqda. ikkinchi misoldagi maqolning ikki tilde bir a’noni ifodalashi kishini hayratga soladi, garchi o‘zbek tilida “toshqizuv”deb berilgan bo‘lsada. Ta’riflanishning mosligi darajasi esa xalqlar madaniyati mosligining darajasini anglatadi deb ta’kidlab o‘tganlar Ye. L. Gutman, F Litvin, M. I. Cheremisina o‘z kitobida.

Ushbu misol shart gap sifatida berilgan bo‘lib, havoning yumshoq kelish keyingi oyga ham ta’siri haqida so‘z bormoqda.

Mart oyi dehqon va chorvadorlar uchun juda ham muhimligi, chunki bu oyda ekin ekish shartligi hammamizga ham ma’lum. Shuning uchun bu oyning qulay kelishi juda muhim.

April

No	English	O‘zbek
1	When April blows his horn, it’s good for both - hay and corn. ³	<i>Savr kirdi –ekinlarga davr kirdi</i>
2	A cold april, the barn will fill. ⁴	<i>Savrning sanog‘ida qishning yog‘ini bor</i>
3	A dry April, not the farmer’s will. April wet, is what he would get.	<i>Savr yomg‘iri-sara oltin</i>
4	April weather, rain and sunshine, both together.	<i>Savrning sanog‘ida qishning yog‘ini bor</i>
5	After a wet April a dry June.	<i>Savr bo ‘lmay sayron bo ‘lmas, sayron bo ‘lmay ayron bo ‘lmas</i>
6	A clear moon in April injures the blossoms.	<i>Savr degan sonli qish men javzongdan go ‘rqaman</i>
7	An April flood carries away the frog and his brood. (ZE)	

Birinchi maqolimiz ergash gap shaklida berilgan bolib unda metafora janri qo'llanilgan. kuzatishlar shuni ko'rsatganki, aprelda yomg'ir yog'sa iyun oyining quruq kelishidan dalolat bergen. Bu holat xuddi dehqonlarning tilagi ijobat bo'lgandek.

Aprelda suv hayvonlarining ko'payish davriga to'g'ri kelganligi uchun sel kelmasligi ular uchun muhimligi ushbu maqolda nazarda tutilyapti.

Aprel oyi haqida berilgan mtabiat hodisalari bilan maqollar ozmi ko'pmi barchasi yomg'irga daxldor ekanligi ikki davlat hududiga ta'siri qiyoslanmoqda. chunki angliya hududi daryolarga boy ekanligi ma'lum, chunki so'nggi maqolimizda ham bu haqda yumoristik usulda aytib o'tildi.

May

No	English	O'zbek
1	A cold May and windy, makes a fat barn and findy. ³	<i>Javzoning yarmida suv tagida arpa pishar</i>
2	Water in May is bread all the year. ³	<i>Savr suvi sara oltin</i>
3	Cool and evening dew in May, brings wine and much hay. ¹	<i>Qavsnii qishdan ajrataolmadim, Javzoni yozdan</i>
4	To wed in May is to wed poverty. ¹	<i>Savrning o'tidan hamalning tuprog'i yaxshi</i>
5	Many thunderstorms in May, and the farmer sings: "Hey, hey!" ¹	<i>Savr degan sonli qish men javzongdan qo'rqaman</i>
6	Shear your sheep in May and you'll shear them away. ⁴ (ZE)	
7	A hot May makes a fat churchyard. ³ (ZE)	

Ushbu maqolda ishlatilgan "findy" so'zi tarixiy so'z bo'lib, gap hosil haqida borganda mo'lko'l, serob degan ma'nolarni anglatadi. (*Oxford English Dictionary*). Tahlil qilinayotgan ikki tilda ham may oyining yaxshi hosil unumdorligida muhim rol o'naydi.

Garchand yomg'ir yog'ishi uzum va ekinlarning o'sishiga bog'liq bolmasin bu ikki xalq tomonidan yaratilgan maqollar o'sha millatga tegishli ekanligi o'z-o'zidan ma'lum. Masalan, *A hot May makes a fat churchyard.*

June

No	English	O'zbek
1	A cold and wet June spoils the rest of the year. ¹	<i>Saratonda sara ekish qolaversa tariq ekish</i>
2	June wet and warm, does farmer no harm. ¹	<i>Saratonda yoqqan yomg'ir dehqonni hosilsiz qoldirar</i>
3	If north wind blows in June, good rye harvest.	<i>Saratonning o'ni – tegirmorning do'li</i>

4	If June be sunny, harvest comes early.	<i>Saraton yaxshi kelsa hosil erta pishar</i>
5	When the white pinks begin to appear, then is the time your sheep to shear.	<i>Saratonda suv quy asadda tek qo'y</i>

Shuni aytish lozimki, tahlil qilinayotgan tillardagi maqollarda keltirilayotgan fikrlarning hammasi insonlarning yaxshi yashashi uchun xizmat qilishiga e'tibor berilmoqda.

Bunday fikrlaring dalilini keltirgan barcha misollarida ko'rishimiz mumkin.

Shuni aytish mumkinki, ba'zi bir maqollarning ishlatalishining ikki tilda ham mosligi va o'xshashligi nafaqat ularning o'zlashtirilganligi va kelib chiqishi tomonidan yaqinligini, balki bu ikki xalqlaming tarixiy jihatdan birligini bildirishi ham mumkin.

Bir so'z bilan aytganda havoning qishda sovishi, yozda esa isishi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda kata ahamiyatga ega ekanligi hech kimga sir emas.

Izlanishlar natijasida keltirilgan ob havo haqidagi maqollarni tahlil qilar ekanmiz bu ikki tildagi maqollar ham millatlarning donoligini va ularning uzoq ko'zatishlardan so'nggina vujudga kelganligini ko'rsatib turibdi. O'z ichiga ob havo maqollarini qamrab olgan bu aytishuvlarimiz ikki tilda bir – biriga to'liq, qisman yoki semantic jihatdan ekvivalenti bo'limganlarini tahlil qildik. Garchi ular tarjimada bir xil bo'lmasada ammo mazmun jihatdan bir biriga mos kelganligiga guvoh bo'ldik chunki har bir xalqning o'ziga xos taraflarini izohlab kelyapti.

Maqollar xalq ijodiyotining beباho namunasi bo'lib, o'sha xalqning milliy – madaniy xususiyatlarini, dunyoqarashi va millatning ruhiyatini ifodalaydi. Mashhur tilshunos Dal aytganidek, "maqollar to'plami – bu xalq tilidan, tajribadan olingan hikmatlar majmuasi, sog'lom aql sarasi, xalqning hayotda orttirgan haqiqati".

Bu maqollarning arxaikligi va sintaktik jihatdan eski usulda yasalganligi tabiiy holdir. Hozirgi vaqtda bu maqollarning og'zaki nutqda kamdan kam ishlatalayotganligining guvohi bo'lib turibmiz. Ingliz olimlari buning asl sababi aholining ko'pchilik qismi shaharda istiqomat qilishi va bu aytishuvlarni ishlatalishga hojat yo'qligida deya baholashmoqda, vaholanki, bu bizning oramizda ham shu holat ko'zatilmoqda. Ammo bu ishni olib bora turib men qishloq vakillaridan ko'plab ma'lumotlarni olishga muvaffaq bo'ldim, va bu maqollarning naqadar aniq va xatosiz aytiganligiga guvoh bo'ldim

Eng qiziqarli joyi shundaki, ingliz va o'zbek maqollari she'riy usulda bitilganligi va ularning yumorga boyligi kishini ajablantirmay qo'ymaydi.

XULOSA

Turli tillarning maqollariga to'xtalar ekanmiz, ular o'sha til egasi bo'lmish xalqning tarixiy, ma'naviy va moddiy madaniyati ko'zgusi ekaniga guvoh bo'lamiz. Shu sababli, turli til maqollarini

qiyosiy o‘rganish millatning o‘ziga xos madaniy va milliy qirralarini ochishga yordam beradi, boshqacha qilib aytganda, o‘sha xalqning mentalitetini ko‘rsatadi.

Kuzatishimizning yana bir qiziqarli tomoni shuki, garchi bu ikki til ikki oilaga mansub bo‘libgina qolmay, balki geografik jihatdan ham ularning qo‘shni emasligi ham kishini hayratga soladi. Bu ikki millatning ham eposi boyligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karamatova K. M. , Karamatov H. S. Proverbs–Maqollar– Пословицы. – Т. : Mehnat, – 2000. –398 b.
2. Korunets I. V. Theory and Practice of Translating. - Vinnytsia: Nova Knyga, 2001. –265p.
3. Marvin, D. E. Antiquity of Proverbs. - New York and London: G. P Putnam Sons, 1922. – 103 p.
4. Meider, W. Dundes, A. The Wisdom of Many: Essays on the Proverb. - New York: Garland, 1995. –340 p.
5. Mollanazar, H. Principles and methodology of translation. - Tehran: SAMT, 2001. – 215p.
6. Norrick, N. R. How Proverbs Mean? Semantic Studies in English Proverbs. - Amesterdom: Mouton, 1985. – 232 p.
7. Razzaqov H. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida satira va yumor. – Toshkent, 1965.
8. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi T. : 2000. – 156 b.
9. Samadov Q. Maqollarimiz mohiyatiga doir. T. : O‘zbekiston Madaniyati. – 1965-213b.
10. Nizomova, M. B. (2023). Cognitive-pragmatic approach to understanding the essence of pedagogical terms. European International Journal of Philological Sciences, 3(05), 54-59.
11. Kadirberganovna, A. Z. (2023). MYTHS AND LEGENDS ABOUT THE SAINTS OF KHOREZM. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 9(2), 50-52.
12. Абидова, З. (2023). HISTORICAL FORMATION AND ARCHITECTURAL STRUCTURE OF THE PILGRIMAGE PLACES OF THE KHORAZM OASIS. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, 6(8).
13. Guzal, R., & Zaynab, A. (2021). The role of Avesta in the formation of a healthy lifestyle in the Khorezm oasis. EPRA International Journal of Socio-Economic and Environmental Outlook (SEEO), 8(1), 8-10.